



O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi
Namangan viloyat Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Namangan davlat universiteti

**YANGI O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY TARAQQIYOTIDA MILLIY
QADRIYATLARNING O'RNI VA AHAMIYATI**

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to'plami



Namangan 2022



qamrovi va ko‘lami ham rivojlanib borishiga amin bo‘ldik. Milliy qadriyatlar esa milliy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va shakllanishi murakkab ijtimoiy jarayondir. Milliy qadriyatlar mazmunan o‘sha millatning g‘oyalari, qarashlari, e‘tiqodlari, ma‘naviy turmush tarzi, orzu-istaklari, kelajak maqsadlarini ifoda etadi. Millatimizning o‘lmas qadriyatlari bor ekan o‘zbek xalqi yuksalishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, s. 81
2. Falsafa qomusiy lug‘ati “Sharq” nashriyoti Toshkent 2004
3. B.Ochilova. “Milliy-ma‘naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisilik”.
4. Toshkent, “Istiqlol”-2009.
5. “Ma‘naviyat asoslari” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini. -J.: JDPI, 2015
6. “Ma‘naviyat asoslari” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini. -J.: JDPI, 2015

SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADA NUTQNING AHAMIYATI

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Toshkent, O‘zbekiston. filologmuazzam@gmail.com

+99897 7716602

Annotatsiya. Mazkur maqola lingvistik ekspertologiyada nutqning taktik-kriminalistik tadqiqi masalasiga bag‘ishlanadi. Og‘zaki va yozma nutq ekspertizasi bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Nazariy tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichida nutqiy ekspertizaning ahamiyatini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.



Kalit so‘zlar: og'zaki nutq, yozma nutq, kognitiv, sud-lingvistik ekspertologiya, pragmatik xususiyat, kommunikativ munosabat.

Abstract. This article is devoted to the issue of tactical-criminological research of speech in linguistic expertise. Oral and written speech expertise is one of the pressing problems today. At the current stage of development of theoretical linguistics, the study of the importance of speech expertise is of particular importance.

Keywords: oral speech, written speech, cognitive, forensic-linguistic expertise, pragmatic feature, communicative attitude.

Og'zaki nutqning sud-tibbiy tadqiqi sud ekspertizasining bir necha bo'limlariga ta'sir qiladi. Xususan, umumiy nazariy bo'limda bu – shaxsni o'rganishga; sud-tibbiyot texnologiyasida – ekspert tadqiqotlariga; kriminalistika taktikasi doirasida – tergov harakatlarini ishlab chiqish xususiyatlariga bevosita bog'liq. O'zbekistonda u qadar rivojlanib ulgurmagani yuristlingvistika yo'nalishi sifatida og'zaki nutqni tadqiq qilish hozirgi kunda aynan taktik va sud-tibbiy jihatdan tergov harakatlarini ishlab chiqish kontekstida katta qiziqish uyg'otadigan dolzarb mavzulardandir.

Ma'lumki, kognitiv xususiyat intellektual soha – fikrlash jarayonlarini o'z ichiga olgan shaxsning kognitiv faoliyati bilan aloqador. Globallashuv jarayoni tezlashgan bugungi kunda har bir shaxs dunyoning rasmini aks ettiruvchi tasvir va g'oyalarni rivojlantiradi; uning ongida ma'lum bir ierarxiya shakllanadi: "ijtimoiy tajriba va faoliyatning o'ziga xos muhitida ijtimoiy, madaniy qadriyatlar tizimi takomillashadi" [2, 53]. Bu so'zlashuv formulalarini muntazam aniq ravishda ishlatishda va nutqning individual burilishlarida namoyon bo'ladi, shu orqali so'zlovchining shaxsini aniqlash mumkin.

Tergovchi tergov harakati ishtirokchisining og'zaki nutqining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning hissiy holati to'g'risida xulosalar chiqaradi, shaxs bilan o'zaro munosabatlarning to'g'ri taktikasini belgilaydi, psixologik aloqa o'rnatadi, shuningdek ma'lumotlarning ishonchsizligini ko'rsatadigan belgilarni aniqlaydi. Tergov harakatlari ishtirokchisining og'zaki nutqining xususiyatlarini tahlil



qilish imkonini beradigan eng keng tarqalgan tergov harakatlaridan biri so'roqdir. So'roq jarayonida e'tiborli jihat shundaki, nutqning individual xususiyatlarni shakllantirishga temperament, ovoz va nutq nuqsonlari kabi omillar yordam beradi. Ular signalning jismoniy tabiatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, ma'ruzachi shaxsiyatining individual o'ziga xosligini kuchaytiradi va ta'kidlaydi. Bu jihatlar hayot davomida, deyarli, o'zgarmaydi va muayyan o'ziga xos xususiyatlar majmuasiga ega [1].

Pragmatik xususiyat shaxsning kommunikativ munosabatlari – uning qiziqishlari, niyatlari va motivlari bilan belgilanadi. Motivatsiya, Yu.N.Karaulovning fikriga ko'ra, "kommunikativ va faol ehtiyoj" [2, 215] lingvistik shaxsning pragmatik jihati birligi sifatida qaraladi. U, shuningdek, lingvistik shaxsning individual xususiyatlarini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu nafaqat shaxsning mantiqiy fikrlashini bilish darajasi, balki uning hissiy holati, qolaversa, muloqotning situatsion omillari bilan belgilanadi. Nutq har xil sharoitlarga qarab o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shaxs nutqida barqaror rasmiy korrelyatsiyalar mavjud emasligi sababli bunday omillarning soni cheklanmagan. Bugungi kunga qadar psixolingvistika hamda sotsialingvistika doirasida amalga oshirilgan "odatiy vaziyatlarni va kommunikativ munosabatlarni hisoblash va tizimlashtirishga urinishlar" [3, 105] shaxsning pragmatik xususiyatlarining tuzilishini to'liq taqdim etishga imkon bermaydi.

Ta'kidlash joizki, yozma nutq belgilarining individualligi va barqarorligi psixofiziologik asosini dinamik stereotip tashkil qiladi [1]. Bu kabi masalalarni, shuningdek, matnni avtorizatsiya qilish muammolarini nazariy va lingvistik nuqtayi nazardan o'rganilishini davr talab qilmoqda. Chunki fuqarolar muammosini tezkor hal qilish borasida yaratilgan imkoniyatlardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi yoki xalq qabulxonalariga murojaat yo'llash qulayliklaridan foydalanib, fitna qo'zg'aydigan hasadgo'y, mansabparast firibgarlar ham ko'payib bormoqda. Shu bois haqiqat qaror topishiga doir izlanishlar, lingvistik shaxsga tashxis qo'yish va nazariy tilshunoslikda sifat usullariga nisbatan miqdoriy metodologiyaning o'rnini aniqlashtirish uchun matnni avtorizatsiya qilish



imkoniyatlarini ilmiy baholash, shuningdek ularni qo'llash chegaralarini aniqlash nihoyatda zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Берлизова Д.В. Вопросы экспертного исследования устной и письменной речи как источника криминалистически значимой информации о личности обвиняемого (подозреваемого). Автореф.: ...канд. юридич. н.: 12.00.09. – 2005.
2. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность / Ю. Н. Караулов. - М., 2004. - 264 с.
3. Конечкая В. П. Социология коммуникации: Учеб. / В. П. Конечкая. -М.: Междунар. ун-т Бизнеса и Управления, 1997. - 304 с.

O‘ZBEKISTON - QADRIYATLAR MASKANI

Komilova Munira Yusufjon qizi

Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq

ta‘limi yo‘nalishi M.AU-21 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Umuminsoniy qadriyatlar biz istiqomat qiladigan kurrai zaminda yashayotgan barcha millat va elatlarning manfaatlarini himoya qilishga hizmat qilishi lozim. Zero ilm-fan va qadriyatlar uyg'unlashgan jamiyat ma'nan yuksak jamiyatdir shular haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, millatlararo, milliy ong, o‘zlikni anglash, islohot, inson qadri.



“Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi Respublika konferensiya materiallari to‘plami

12. **Turkiy xalqlar hayotida qadriyat tushunchasi: tarix va bugun** 48
Sayfullayeva F.
Navoiy davlat pedagogika instituti
13. **Sud-lingvistik ekspertizada nutqning ahamiyati** 52
Dedaxanova M.
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
14. **O‘zbekiston - qadriyatlar maskani** 55
Komilova M.
Namangan Davlat universiteti
15. **Globalashuv jarayonida pedagogik kreativlik tushunchasi** 57
Komilxo‘jayev Z., Nuriddinova A.
Namangan davlat universiteti
16. **Ta'lim sohasida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar** 63
Abdusharipova F.
UrDU
17. **How to build on the use of interactive methods in the formation of self-development Competence in students** 67
Akhmadjanov D.
Chirchik State Pedagogical University
18. **Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati** 70
B.Rayimho‘jayeva, M. Badritdinova
NamDU
19. **Globalashuv sharoitida zamonaviy o‘zbekona tarbiya – millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik na‘munasi** 73
K.A.Abrorxonova, D.A.Matyakubova
Nizomiy nomidagi TDPU
20. **Ilm fan va ma‘rifat – uchinchi renessans poydevori** 77
Lapasov M.
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
21. **Ruboiy janrining alisher navoiy lirikasida tutgan o'rni** 81
Sulaymonova Z.
Namangan davlat universiteti
22. **Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida milliy qadriyatlarning o‘rni va ahamiyati** 85
Murodova H.
Namangan Davlat Universiteti
23. **Pedagogical competence. An understanding of the innovative cluster of pedagogical education** 90
Mirzarakhmanova Sh.
Chirchik State Pedagogical University
24. **Yuksak ma‘naviyatli avlod – uchinchi renessans bunyodkoridir** 94
Zuhrobova S.